

ISAJON SULTON ASARLARIDA MILLIY MIFOLOGIYANING BADIY IFODASI

Eshpo'Latova Kamola Abdijalilovna

Qarshi tumani 45-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17526841>

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri — Isajon Sulton ijodida mifologik obrazlarning qo'llanishi va ularning badiiy talqini tahlil qilinadi. Muallif asarlarida xalq og'zaki ijodi, rivoyatlar va qadimiy mifologik timsollarni zamonaviy inson ruhiyati, ma'naviy izlanishlari bilan bog'lab, ularni yangi semantik mazmun bilan boyitadi. Tadqiqotda yozuvchining asarlarida uchraydigan mifologik obrazlarning funksional va ramziy xususiyatlari o'rganilgan. Maqola Isajon Sulton nasrida folklor va mifopoetikaning o'zaro uyg'unligi, mifologik timsollar orqali inson va jamiyat muammolarining yoritilishiga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: Isajon Sulton, mifologik obraz, mifopoetika, ramziy timsol, folklor, mifologiya, o'zbek nasri, badiiy talqin, zamonaviy adabiyot.

Bugungi o'zbek adabiyotida milliy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi va mifologik timsollarni zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtirish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Shu jihatdan Isajon Sulton ijodi alohida o'rin tutadi. Uning asarlarida qadimiy mifologik obrazlar, xalq ertaklari va rivoyatlaridagi timsollar yangi ma'nolar bilan talqin qilinadi, ularning zamonaviy inson ruhiyati bilan bog'liq qirralari ochib beriladi. jodkor asarlaridagi obrazlar o'zining mukammalligi, o'quvchini mulohazaga chorlashi, voqelik dinamikasining kutilmagan sur'atlarida, burilishlarida akslangan turfaliklari bilan ajralib turadi.

Yozuvchi o'z asarlariga folklor unsurlarini singdirib yuboradi. Bu holat uning hikoyalarida ham ko'rinadi. Adibning hikoyalarida folklor unsurlari poetik vazifa bajaradi. Ular quyidagicha uchraydi:

- a) mifologik asosli ramziy obrazlar;
- b) ertakka xos kompozitsiya;
- v) hikoya ichida rivoyatlarning berilishi;
- g) maqollardan foydalanish;
- d) urf-odatlar va an'analar tasviri.

Adibning mifologik obrazlar tasvirlangan "Manzil", "Bog'i Eram", "Ozor", "Farishta", "Orif", "Uzuk", "Bir tomosha tarixi", "Xazinabon" kabi asarlarni kiritish mumkin. Ma'lumki, miqlar ajdodlarimizning ibtidoiy tushunchasiga ko'ra shakllantirilgan hikoyalardir. Unda olam, odam, koinot, borliq paydo bo'lishi hamda ularning tarixiy asoslari saqlanadi. Yozuvchining yuqoridagi hikoyalarida mifologik obrazlarning ayrimlarini ko'rish mumkin, ular hikoya kompozitsiyasi uchun ma'lum poetik vazifani bajargan. Masalan, adibning "Manzil" hikoyasida bir nechta mifologik obrazlar yaratilgan. "Yana ancha yo'l bosganimizdan keyin tog'lar bilan o'ralgan bir vodiy ga kirib bordik. Ko'llari shishaday tiniq, odamlari g'oyat go'zal edi. Keyin bilsak, bu yurtning oti Ko'hi Qof, bularesaodamzodemasa, parilarekanlar. Xalq tasavvurida parilar yashaydigan tog' bo'lgan. Bu ularning yurti hisoblangan. Tog'ning nomi Ko'hi Qof deb atalgan. "...parilar ham" narigi dunyo" vakillari, ikki olam ilohachisi vazifasini o'taydilar.

Isajon Sulton hikoya va romanlaridagi folklor unsurlaridan biri bo'lmish mifologik obrazlar ma'lum bir poetik vazifa bajargan. Yozuvchining "Ozod" romanida Humo, Qof tog'i, Iskandar devori, yajuj-majujlar kabi bir qancha mifologik obrazlarni uchratamiz. Ozod asar yakunida Humo baxt qushini topadi. Bu yerdagi humo qushini xalq og'zaki ijodida uchraydigan mifologik obrazlar Qaqnus va Samandar kabi qushlardan biridir.

Humo qushi turkiy xalqlar poetik ijodida Semurg', Anqo, Davlatqushi, Baxtqushi, Bulbuligo'yo kabi bir nechta nomlari bilan ataldi. Humo afsonaviy qush obrazi. Insonlarning abadiy baxt –saodat haqidagi orzu umidlarining ramziy ifodasi. Romanda Isajon Sulton bu qushni shunday ta'riflaydi. "U chiroyli tillarang tusda tovlanadi, atrofida mayin uchqunchalar taratmoqda edi. Qaydandir uchib kelmadi, balki chaqmoqlarning chaqinlari aro yo'qlikdan paydo bo'ldi. Yer yuzida bunday chiroyli qush borligini bilmas edi Ozod. U hech qaysi qushga o'xshamas, g'oyat kibor kichkina boshchasi adl va mag'rur va tik ko't arilgan ozod va hur edi.

Isajon Sulton insonlar va yovuz mahluqlardan insoniyatni ajratib turuvchi tog'ni Qof tog'i deb ataydi. Afsonalarda keltirishicha Qof tog'I ya'ni, Ko'hi Qof dunyoning bir chekkasida joylashgan bo'lib, bu yerni go'zal parilar va farishtalar makon qilgan. Yozuvchining "Manzil" hikoyasida bu tog'ni shunday tasvirlagan. "Yana ancha yo'l bosib o'tganimizdan keyin tog'lar bilan o'ralgan bir vodiya yetib bordik. Ko'llari shishaday tiniq, odamlari g'oyat go'zal edi. Keyin bilsak, bu yurtning oti Ko'hi Qof, bular esa odamzod emas, parilar ekanlar" Bu hikoyaning sujeti "Ozod" romani sujetiga monand tarzida yaratilgan .

Bunday ko'lamdorlik va kengayish Isajon Sulton asarlari tarkibida uchraydigan Xizr (a.s.), Muso (a.s.) yoki Iskandar Zulqarnayn kabi turli tarixiy obrazlarning turli epizodlarida kelishi evaziga ham yuz beradi. To'g'ri, adibning katta-kichik hajmli boshqa asarlarida ham turli mumtoz va zamonaviy adiblar asarlaridan olingan ko'chirmalar uchraydi. Ammo "Ozod" romani adibning boshqa asarlariga ko'ra aynan badiiy parchalar va boshqa ijodkorlarning asarlariga ishora nuqtai nazaridan ajralib turadi. Romanning bosh qahramoni Ozod tevaragidagi narsa-predmetlar, tabiat hodisalari, xususan, shamol ham asarda o'ziga xos obraz sifatida keladi. Ba'zan shamol bilan Ozod o'rtasida turlicha suhbatlar bo'lib o'tadi. Ozodning safarida, yo'lda ko'rgan-kechirganlariga shamol ham guvoh bo'ladi. Romanda kelgan ishoraviy ramzlar o'quvchining xayolini bepoyon adabiy-badiiy kengliklar sari boshlaydi. Eng asosiysi, bugungi globallashuv jarayonida, har qanday ma'naviy qadriyatlardan turli-tuman texnikalar o'zib ketayotgan bir mahalda "Ozod" romani tagzaminida ma'naviyatning ulug'lanishi har qanday ma'rifatli odamni quvontiradi.

FOYDALANILIGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Xamsa. Saddi Iskandariy. Toshkent:Yangi asr avlodi .2013-y 395-bet.
2. Исажон Султон. Озод.– Тошкент: Шарқ, 2012.-310- bet.